

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI



**SAMARQAND VILOYATIDA CHAKANA VA
ULGURJI SAVDO
TOVAR AYLANMASI**



*Dastlabki ma’lumot
2023-yil yanvar-oktabr*




CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023-yil 1-noyabr holatiga viloyat bo'yicha chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **12 572** tani tashkil etib, (o'sish sur'ati **88,3** %). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **41** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **12 531** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YaTTlar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **21 915,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **106,7** % ni tashkil etdi.

Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **4 373,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **103,1** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **17 542,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **107,6** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **2 082,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **113,0** %) tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI



Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.


	Jami mlrd. so'm	2022-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, %	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, %	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022-yil yanvar – oktabr oylariga nisbatan, %
Samarqand viloyati	21 915,8	106,7	4 373,2	103,1	17 542,7	107,6
Samarqand sh.	7 719,0	105,1	3 273,9	87,4	4 445,1	123,5
Kattaqo'rg'on sh. tumanlar:	1 249,2	100,3	1,2	86,0	1 248,0	100,3
Oqdaryo	509,7	103,3	11,1	2,1 m.	498,6	102,2
Bulung'ur	879,3	104,8	25,8	107,5	853,5	104,7
Jomboy	807,3	105,3	108,0	123,0	699,3	103,0
Ishtixon	716,5	109,0	5,5	93,5	711,0	109,2
Kattaqo'rg'on	1 107,6	107,1	46,5	5,5 m.	1 061,2	103,5
Qo'shrabot	280,2	104,5	4,2	91,5	276,0	104,7
Narpay	848,8	103,0	6,2	82,1	842,6	103,2
Payariq	779,8	103,3	6,2	87,1	773,6	103,5
Pastdarg'om	1 017,8	103,0	40,0	137,1	977,8	101,9
Paxtachi	533,5	103,7	5,6	87,0	527,9	103,9
Samarqand	2 116,0	123,3	782,9	3,1 m.	1 333,1	91,2
Nurobod	338,4	101,8	4,2	95,9	334,2	101,9
Urgut	2 286,1	107,3	37,2	100,9	2 248,9	107,4
Toyloq	726,6	114,0	14,7	100,9	711,9	114,4

2023-yilning yanvar-oktabr oylarida 2022-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan Samarqand (**123,3** %), Toyloq (**114,0** %), Ishtixon (**109,0** %), Urgut (**107,3** %), Kattaqo'rg'on (**107,1** %), Jomboy (**105,3** %) tumanlarida va Samarqand shahrida (**105,1** %) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.



YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI


Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi,
yanvar-oktabr, mlrd. so'm



So'nggi **6 yillikda** chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021-yilning mos davriga nisbatan **110,9 %** ni yoki **20 192,3** mlrd. so'mni tashkil qildi.


Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida, foiz

2022-yil, 2023-yil yanvar-oktabr oylari



2023-yilning yanvar-oktabr oylarida o'sish sur'ati 106,7 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi, foiz



- | | | |
|-----------------|---------------------|-------------|
| ■ Samarqand sh. | ■ Kattaqo'rg'on sh. | ■ Oqdaryo |
| ■ Bulung'ur | ■ Jomboy | ■ Ishtixon |
| ■ Kattaqo'rg'on | ■ Qo'shrabot | ■ Narpay |
| ■ Payariq | ■ Paxtachi | ■ Samarqand |
| ■ Pastdarg'om | ■ Nurobod | ■ Urgut |
| ■ Toyloq | | |

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Samarqand shahri **35,2 %** bilan **7 719,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Qo'shrabot tumani **1,3 %** bilan **280,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasida Samarqand (**123,3 %**), Toyloq (**114,0 %**), Ishtixon (**109,0 %**), Urgut (**107,3 %**), Kattaqo'rg'on (**107,1 %**) va Jomboy (**105,3 %**) tumanlarida yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **17 542,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **7,6** % ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **80,0** % ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar, foiz



Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar, foiz



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **103,1** % ni va **4 373,2** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **20,0** % ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, foiz

Toyloq	2,0	98,0
Urgut	1,6	98,4
Nurobod	1,3	98,7
Samarqand	37,0	63,0
Paxtachi	1,1	98,9
Pastdarg'om	3,9	96,1
Payariq	0,8	99,2
Narpay	0,7	99,3
Qo'shrabot	1,5	98,5
Kattaqo'rg'on	4,2	95,8
Ishtixon	0,8	99,2
Jomboy	13,4	86,6
Bulung'ur	2,9	97,1
Oqdaryo	2,2	97,8
Kattaqo'rg'on sh.	0,1	99,9
Samarqand sh.	42,4	57,6
Samarqand viloyati	20,0	80,0

■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Kattaqo'rg'on shahri (**99,9 %**) va Payariq (**99,2 %**), Ishtixon (**99,2 %**), Narpay (**99,3 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **20,0 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahri (**42,4 %**) va Samarqand (**37,0 %**), Jomboy (**13,4 %**), Kattaqo'rg'on (**4,2 %**) tumanlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming so'm	O'sish sur'ati, foiz
Samarqand viloyati	5 278,2	104,4
Samarqand sh.	13 361,6	103,0
Kattaqo'rg'on sh.	13 289,5	98,7
tumanlar:		
Oqdaryo	2 985,9	100,8
Bulung'ur	4 414,1	102,5
Jomboy	4 326,5	102,7
Ishtixon	2 631,1	106,7
Kattaqo'rg'on	3 818,1	105,0
Qo'shrabot	2 000,2	102,5
Narpay	3 774,0	101,1
Payariq	2 895,5	100,8
Pastdarg'om	2 692,6	100,8
Paxtachi	3 535,4	102,1
Samarqand	7 854,7	120,6
Nurobod	2 107,4	99,8
Urgut	4 152,0	104,7
Toyloq	3 337,6	111,3

2023-yilning yanvar-oktabr holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **5 278,2** ming so'mni (2022-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **104,4** % ni) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Samarqand shahri (**13 361,6** ming so'm), Kattaqo'rg'on shahri (**13 289,5** ming so'm) va Samarqand (**7 854,7** ming so'm), Bulung'ur (**4 414,1** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI




Viloyat bo'yicha 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **2 082,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **113,0** % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12-bozor (oylik) va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **854,8** mlrd. so'mni (**158,6** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **1 228,1** mlrd. so'mni (**94,1** %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm




Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, foiz



UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, foiz



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.












UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022-yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, %	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022-yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, %	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022-yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, %
Samarqand viloyati	2 082,9	113,0	854,8	158,6	1 228,1	94,1
Samarqand sh.	159,4	144,8	152,4	143,2	6,9	189,8
Kattaqo'rg'on sh. tumanlar:	237,1	69,7	101,5	193,8	135,6	47,1
Oqdaryo	120,8	104,7	10,8	76,8	110,0	108,5
Bulung'ur	175,8	113,6	45,4	99,0	130,4	119,8
Jomboy	198,7	134,3	135,5	2,1 m.	63,2	77,0
Ishtixon	167,8	153,8	80,3	5,0 m.	87,5	94,0
Kattaqo'rg'on	134,7	101,0	44,1	127,1	90,6	91,9
Qo'shrabot	99,1	110,0	22,0	191,0	77,2	98,2
Narpay	30,6	129,9	20,5	104,9	10,1	2,5 m.
Payariq	132,7	91,6	56,1	157,2	76,6	70,1
Pastdarg'om	77,9	90,3	6,6	42,2	71,3	100,9
Paxtachi	87,0	116,4	32,6	117,2	54,4	116,0
Samarqand	82,6	163,6	6,3	148,1	76,4	165,0
Nurobod	72,3	91,4	25,0	82,7	47,3	96,8
Urgut	122,3	134,7	75,0	2,1 m.	47,3	86,3
Toyloq	184,1	198,1	40,7	176,3	143,3	2,1 m.

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;











– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **854,8** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**387,8** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mrld. so'm
	Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari	387,8
	Non va non mahsulotlari	133,0
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	90,4
	Tovuq go'shti	63,2
	Qurilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)	46,6
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...)	24,5
	Tuxum	29,0
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak	11,4
	Ziravorlar	27,9
	Tuzlamalar	23,5
	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)	3,6
	Nooziq-ovqat tovarlari	13,9

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **1 228,1** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **991,2** mlrd. so‘m, qo‘y va echkilar **170,9** mlrd. so‘mni, otlar **59,3** mlrd. so‘mni, parrandalar **6,7** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mrld. so‘m
	2 yoshdan kata bo‘lgan qoramollar	585,6
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	257,1
	1 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	148,5
	Qo‘ylar	140,2
	Otlar	59,3
	Echkilar	30,7
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	2,1
	Tovuqlar	4,6
	Quyionlar	0,08
	Qushlar	0,017

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023-yil 1-noyabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **2 977** tani tashkil etib, o'sish sur'ati **75,3 %** ni tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **6** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2 971** tani tashkil qildi.


2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **904,0** mlrd. so'mni (**116,5 %** ni) tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **16,5 %** ga ko'paydi. Bunda savdo aylanmasining **66,2 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, %	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, %	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, %
Samarqand viloyati	904,0	116,5	305,4	145,7	598,6	105,7
Samarqand sh.	416,3	103,7	69,3	92,1	347,0	106,3
Kattaqo'rg'on sh.	18,5	105,7	-	-	18,5	105,7
tumanlar:						
Oqdaryo	3,4	101,8	-	-	3,4	101,8
Bulung'ur	20,7	114,3	10,5	129,1	10,2	102,3
Jomboy	13,8	107,0	-	-	13,8	107,0
Ishtixon	4,6	104,2	-	-	4,6	104,2
Kattaqo'rg'on	10,3	104,7	-	-	10,3	104,7
Qo'shrabot	7,3	104,3	-	-	7,3	104,3
Narpay	9,1	104,0	-	-	9,1	104,0
Payariq	9,6	103,7	-	-	9,6	103,7
Pastdarg'om	69,7	97,9	15,6	82,4	54,1	103,5
Paxtachi	9,3	104,9	-	-	9,3	104,9
Samarqand	42,9	104,1	-	-	42,9	104,1
Nurobod	8,1	106,9	-	-	8,1	106,9
Urgut	23,3	108,3	-	-	23,3	108,3
Toyloq	237,1	178,9	210,0	195,8	27,1	107,2

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023-yilning yanvar-oktabr oylariiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45-bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **1 961,5** mlrd. so'mni tashkil etib, o'tkan yilning mos davriga nisbatan **118,1 %** ni tashkil qildi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **351,9** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **109,7 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi **1 609,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **120,1 %**) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foiz



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi




Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foiz
Samarqand viloyati	1 961,5	100
Samarqand sh.	1 439,0	73,4
Kattaqo'rg'on sh.	10,5	0,5
tumanlar:		
Oqdaryo	9,5	0,5
Bulung'ur	5,7	0,3
Jomboy	1,4	0,1
Ishtixon	8,1	0,4
Kattaqo'rg'on	14,3	0,7
Qo'shrabot	0,4	0,02
Narpay	7,2	0,4
Payariq	2,0	0,1
Pastdarg'om	0,4	0,02
Paxtachi	4,1	0,2
Samarqand	50,3	2,6
Nurobod	25,3	1,3
Urgut	1,4	0,1
Toyloq	381,9	19,4


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Samarqand shahri (**1 439,0** mlrd. so'm), Toyloq (**381,9** mlrd. so'm) va Samarqand (**50,3** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘m



Viloyat bo‘yicha 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **11 882,7** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **18,0** % ga o‘ydi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **6 941,7** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **92,4** % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **58,4** % ni tashkil qildi.


ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK KORXONALAR



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Samarqand shahrida (2,1 m.), Tayloq (193,6 %), Pastdarg'om (138,1 %), Samarqand (176,3 %) va Bulung'ur (103,2 %) tumanlarida kuzatildi.

2023-yil 1-noyabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **3 027** tani tashkil etib, o'sish sur'ati **105,8 %** ni tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **37** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2 990** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022-yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, %	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022-yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, %	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022-yil yanvar – oktabr oylariga nisbatan, %
Samarqand viloyati	11 882,7	118,0	4 941,0	193,1	6 941,7	92,4
Samarqand sh.	7 775,2	121,4	3 936,5	2,1 m.	3 838,7	84,6
Kattaqo'rg'on sh.	283,7	100,5	1,3	23,8	282,4	102,0
tumanlar:						
Oqdaryo	88,2	114,0	-	-	88,2	114,0
Bulung'ur	303,1	99,8	235,7	103,2	67,4	89,6
Jomboy	160,9	90,2	33,2	97,2	127,7	88,6
Ishtixon	91,3	104,6	-	-	91,3	104,6
Kattaqo'rg'on	195,6	101,9	-	-	195,6	102,5
Qo'shrabot	30,6	93,8	0,2	81,8	30,4	93,9
Narpay	129,4	96,2	0,4	62,3	129,0	96,4
Payariq	67,0	104,8	-	-	67,0	104,8
Pastdarg'om	456,0	106,6	143,4	138,1	312,6	96,4
Paxtachi	23,3	98,6	0,2	26,7	23,1	101,3
Samarqand	893,7	114,1	275,6	176,3	618,1	98,6
Nurobod	72,8	97,7	0,1	76,6	72,7	97,8
Urgut	537,7	106,1	-	-	537,7	106,1
Toyloq	774,2	154,7	314,4	193,6	459,8	136,0



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Teln. 66-235-65-80**